

## О‘ЗБЕК TILSHUNOSLIGIDA FRAZEOLOGIZMLARNING O‘RGANILISHI. TILSHUNOSLIKDA FRAZEOLOGIZMLARNING AHAMIYATI

*Madaminova Marhabo Oybek qizi*  
*Nukus davlat pedagogika instituti*  
*Ellikqal'a pedagogika fakulteti talabasi*  
*Durdibayeva Munisa Xudaybergan qizi*  
*Nukus davlat pedagogika instituti*  
*Ellikqal'a pedagogika fakulteti talabasi*  
*Xalmuratova Tavus Talibjanovna*  
*Nukus davlat pedagogika instituti*  
*Ellikqal'a pedagogika fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbi maqolada frazeologiya bo‘limi, frazeologiya bo‘limining mustaqil fan bo‘lib shakllanishi, tilshunos olimlarimiz tomonida frazeologiyani o‘rganish doirasi, tilshunoslikda frazeologizmlar o‘rni va nutqning ta‘sirchanligida, ifodaliligida iboralarning ahamiyati, hamda ularning asosiy xususiyatlari tahlil qilinadi.

**Tayanch iboralar:** frazeologiya, tilshunoslik, frazeologik ma‘no, ibora, frazeologik birliklar

Frazeologizm— ikki yoki undan ortiq so‘zdan tashkil topgan, ma‘noviy jihatdan o‘zaro bog‘liq so‘z birikmasidir. Iboralar- bu lingvistik terminologiya tili bilan aytsak, frazeologizmlardir. Frazeologizm qadimgi grek tilidan olingan bo‘lib, „frasis“- „ibora“, „logos“- „tushuncha“, „ta‘limot“ demakdir. Frazeologizmni tilning leksik-semantik va sintaktik sathlaridan farq qiluvchi alohida sathga xos birlik deyish frazeologik normani ham adabiy tilning boshqa normalari qatorida hisobga olishni talab etadi. Ma‘lumki, frazeologizm so‘z kabi lug‘aviy birlik sanaladi. Ular ham so‘z kabi tilda tayyor holda mavjud bo‘lganligi sababli ham nutq hodisasi emas, til hodisasi hisoblanadi. Tilshunoslik bo‘limi sifatida frazeologiya - biror tilga xos barqaror so‘z birikmalarni va iboralarni o‘rganadigan bo‘limdir. Iboralar murakkab til hodisasi sifatida ikki yoki undan ortiq komponentlardan tashkil topadi.

So‘zlashuv uslubida fikrning ta‘sirchanligini oshirish, takrorning oldini olish maqsadida iboralar qo‘llash amalga oshiriladi va unumli foydalaniladi. Badiiy uslubda esa badiiy asar ta‘sirchanligini va badiiy asar qahramonining nutqi ifodaliligini oshirishga yordam beradi. Frazeologik iboralar nutqning ta‘sirchanligini, emotsional - ekspressivligini ta‘minlovchi asosiy vosita sifatida nutqimiz ko‘rki hisoblanadi.[1]

Tilshunoslikda frazeologiya atamasi Sharl Balli tamonidan ishlatilib, stilistika fani bilan qo‘shib o‘rganilgan, lekin frazeologiyani fan sifatida tan olish fikrini

bildirgan taniqli tilshunos olim prof. E. F. Polivonovdir. Shu fikrni qo'llab-quvvatlagan olimlardan yana biri mashhur tilshunos olim V.V.Vinogradovdir. U o'zining qator ilmiy tadqiqotlarida rus tilidagi frazeologik birikmalar ta'limotlarni yig'adi va ularni semantik jihatdan guruhlariga bo'lib chiqadi. E.D.Polivanov va V.V.Vinogradovlar tomonidan o'rta tashlangan frazeologiya haqidagi fikrlar keyinchalik bu sohada ko'plab tadqiqotlarning yuzaga chiqishiga turtki bo'ldi. Lekin hozirga qadar frazeologiyani fan sifatida qarash yoki qaramaslik haqidagi fikrlar o'z yechimini to'laligicha topgan emas. Idioma frazeologizmlar, frazeologik birikmalar va turg'un iboralar (maqol va matallar, gapga teng boshqa frazeologizmlar) orasidagi bir qancha farqlarga qarab bir qancha olimlar frazeologiyani 2 xil: tor va keng ma'noda izohlaydilar. Uni keng ma'noda anglaganda (L.P.Smit, V.P.Jukov, V.N.Teliya, N.M.Shanskiy) frazeologiya ichiga maqol va matallar, xalq og'zaki ijodiga mansub bo'lgan iboralar, bir qancha so'zlashuv shakillarini (salomlashish, xayrlashish iboralarini) ham kiritishadi. Ammo frazeologiyani keng ko'lamda tushunish masalasi haligacha ham o'z yechimini topgani yo'q desak aslo mubolag'a bo'lmaydi.[2]

O'zbek tilshunosligida frazeologiyaga doir dastlabki ishlar o'tgan asrning 50-yillarining boshida yuzaga keldi. O'zbek tilshunosligida frazeologiya sohasini A.Sa'diy, V.Abdullayev, U.Tursunov, A.G'ulomov, N.Mallayev, Sh. Rahmatullayev kabi olimlar o'rganishdi va bu sohaga doir fikrlarni rivojlantirib, tilshunoslik bo'limi sifatida frazeologiya haqida ko'plab ishlarni amalga oshirishdi. Sh. Rahmatullayev o'zining "O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari" (1966) nomli monografiyasida frazeologik omonimlar, frazeologik paronimlar va frazeologik paraformalar haqida fikr yuritgan. Bu davrda S.N.Muratovning "Turkiy tillarda turg'un so'z birikmalari" nomli ishi bilan turkiy til iboralarini yoritishga kirishgan. N.Turopovning "Yapon va o'zbek tillaridagi frazeologizmlarni qiyosiy o'rganish" nomli ilmiy maqolasida yapon tili frazeologizmlarining xususiyatlarini o'rganib, ularni o'zbek tilida ifodalash usullarini tahlil qilib o'rgangan. Har ikkala tildagi frazeologizmlarni qiyosiy o'rganishda ularning mazmun jihatdan bir - biriga mos kelishi yoki qisman mos kelishi, o'xshashligiga ahamiyat qaratgan.

So'zlar ham yillar, asrlar davomida fonetik o'zgarishga uchragani, eskirganidek iboralarda ham o'zgarishlar bo'lgan. Bu haqida Erkin Vohidov o'z asarlarida juda ko'plab fikrlarini aytib o'tgan: „hech bir so'z, hech bir ibora bekor aytilmaydi. Og'izdan og'izga o'tib so'zlar almashadi, tushib qoladi, harflar o'zgaradi va tanib bo'lmas holga keladi. Agar biz ko'proq izlasak, tarixni o'rgansak, So'zning so'ziga qalb qulog'imizni tutsak, tilimizda majhul ibora qolmas“.[3]

Frazeologik birliklarning muhim belgilaridan biri shundan iboratki, ular zamirida ma'lum obraz, konkret hodisa, harakat yoki predmet tasavvuri yotadi. Misol uchun, „xafa bo'lmoq“ ma'nosida qo'llaniladigan „qovog'idan qor yog'moq“ iborasida ma'no „xafa bo'lmoq“ so'ziga qaraganda kuchli va ta'sirchan va unda predmet orqali

inson holati, kayfiyati tasvirlangan. „Xamirdan qil sug‘irganday“ iborasi orqali konkret hodisa oson kechayotganligi tasvirlanadi. Har bir ibora o‘zi ifodalayotgan g‘oya va voqeani ta‘sirchan qiladi, ma‘noni kuchaytiradi, ifodalilikni orttiradi. Shu sababli ham ijodkorlar va notiqalar o‘z nutqini ifodali, ta‘sirchan va bo‘yoqdor qilish maqsadida iboralardan foydalanishadi. O‘zbek adabiyotida ham Abdulla Qahhor, Xudoyberdi To‘xtoboyev, G‘afur G‘ulom kabi ijodkorlar yaratgan asarlarda iboralar juda ko‘p qo‘llanganligi ma‘lum. Badiiy asarlarda qo‘llanilgan iboralar obrazlar xarakterini yoritishda, hamda asar tilining sodda bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Xudoyberdi To‘xtoboyev o‘z romanlarida taxminan 1000 dan ortiq ibora qo‘llagani ma‘lum .

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Turopova N. “Yapon va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarni qiyosiy o‘rganish” nomli ilmiy maqolasidan
2. Xudoyqulov B. „Frozeologizmlarning asosiy xususiyatlari “ 2021.
3. Vohidov E. „ So‘z latofati“ . T: „O‘zbekiston“ 2018